

7-10-2019

## PRACTICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TECHNOLOGY IN CREATING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES RESERVES

Shakhobiddin Sobirovich Kuziev

*Ferghana Polytechnic Institute Assistant of the department "Higher Mathematics"*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Kuziev, Shakhobiddin Sobirovich (2019) "PRACTICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TECHNOLOGY IN CREATING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES RESERVES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 64.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/64>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

## PRACTICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TECHNOLOGY IN CREATING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES RESERVES

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

**ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI BAZASINI YARATISHDA  
TEKNOLOGIYALASHTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI**

Asqarov Ixtiyor Baxtiyrovich - Jizzax politexnika instituti

“Kasb ta’limi” kafedrasida katta o’qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

email: [ixtiyor.8778@mail.ru](mailto:ixtiyor.8778@mail.ru)

Qo’ziyev Shahobiddin Sobirovich - Farg’ona politexnika instituti

“Oliy matematika” kafedrasida assistenti

email: [shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru](mailto:shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida elektron ta’lim resurslarini yaratishda texnologiyalashtirishning nazariy va metodik asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ta’lim jarayoniga kompyuter va pedagogik texnologiyalarini joriy etish masalalari hamda axborot-metodik materiallar va elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish hamda ta’lim muassasalarining kichik bazalarda joylashtirish imkoniyatlari ochib berilgan*

***Tayanch so’zlar:** texnologiya, elektron ta’lim, tarmoq texnologiyalari, bilimlar bazasi, tadqiqotchilik faoliyati, nazariya, metodika.*

**ПРАКТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ В СОЗДАНИИ  
РЕЗЕРВОВ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ**

Аскарлов Ихтиёр Бахтиерович - Джизакский Политехнический Институт

Старший преподаватель кафедры профессионального образования, p.f.ft.d. (Доктор философии)

email: [8778@mail.ru](mailto:8778@mail.ru)

Кузиев Шахобиддин Собирович - Ферганский политехнический институт

Ассистент кафедры "Высшая математика"

email: [shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru](mailto:shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru)

***Аннотация:** В данной статье рассматривается, создание электронных учебных ресурсов в учебных учреждениях которое оказывает положительное влияние на учебный процесс. А также раскрыты задачи внедрения в образовательный процесс компьютерных и педагогических технологий, разработка информационно-методических материалов и электронных образовательных ресурсов, возможности размещения в малых базах образовательных учреждений.*

***Ключевые слова:** технология, электронное обучение, сетевые технологии, база знаний, исследование, теория и методика.*

**PRACTICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TECHNOLOGY IN CREATING  
ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES RESERVES**

Askarov Ihtiyor Bahtierovich - Jizzakh Polytechnic Institute

Senior Lecturer at the Department of Vocational

Education, p.f.ft.d. (Ph.D)

email: [ixtiyor.8778@mail.ru](mailto:ixtiyor.8778@mail.ru)

Kuziev Shakhobiddin Sobirovich - Ferghana Polytechnic Institute  
Assistant of the department "Higher Mathematics"

email: [shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru](mailto:shahobiddin.qoziyev.89@mail.ru)

***Abstract:** This article discusses how the creation of e-learning resources in educational institutions will have a positive effect on the learning process. And also the tasks of introducing computer and pedagogical technologies into the educational process, the development of informational and methodological materials and electronic educational resources, the possibility of placing in small sections of educational institutions are disclosed.*

***Key words:** e-learning, pedagogical technologies, network technologies, knowledge base, research.*

Bugungi axborot texnologiyalari asrida oliy ta'lim jarayonida faqat mavjud bilimlarnigina o'zlashtirib, so'ngra ilm bilan shug'ullanish emas, balki ta'lim jarayonini ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir vaqtda va bir- biri bilan bog'lagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni juda ko'p ma'lumotlarga asoslanilgan tarzda amalga oshirilishi tufayli, talaba barcha ma'lumot yoki axborotlarni o'zlashtira olmaydi hamda olayotgan axborotlarini tizimlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'lmaydi. Shuning uchun bo'lajak mutaxassisning bilim darajasi mukammal bo'lmay, nisbatan o'z ishiga yuqori qiziqish bilan yondoshmaydi. Elektron ta'lim resurslarini yaratishdan maqsad o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida fikrlarning mantiqiy bayoni jarayonida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurini rivojlantirish, faoliyatida ijodiy yondashish ko'nikmalarini hosil qilish va zamonaviy bilim asoslariga ega bo'lishini taminlashga qaratilishi kerak. Hozirgi davrda jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, axborotlashgan jamiyatga o'tish borasidagi amaliy harakatlar, jahon ta'lim tizimiga integratsiyalanish jarayonlari va ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi mamlakatimiz kasb-hunar ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalarini joriy etish quyidagi masalalarni yechish imkonini beradi:

- o'qitishda vaqtdan unumli foydalanish samaradorligini oshirish;
- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va o'tkazish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'qitish modellarini qo'llash;
- o'quvchida ijodkorlik qobiliyatining rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot-texnologiyalarining tezlik bilan almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir insonga o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga,

axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur [1,2].

Ta'lim texnologiyalari murakkab va ko'p aspektli obyektlardan iborat, shuning uchun ular tuzilishining nafaqat to'laligi, balki uning ishtirokchilari faoliyati nuqtayi nazaridan ham qaralishi zarur. Bu ularning ishlashida, mo'ljallangan natijaga erishish yo'lida dinamik rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Texnologik ta'lim natijasi o'quv predmetining mazmuniga kiritilgan axborotning qandaydir qismigina emas, balki faoliyat usullari, insoniy qadriyatlar va munosabatlarni ham egallashidan iborat. O'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan yuqori samaradorlikka erishish uchun elektron ta'lim resurslardan foydalanish va kompyuter yordamida o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali erishish mumkin. Kompyuterdan o'qitish texnologiyasida o'quvchi ta'lim jarayonida markaziy figura hisoblanadi, lekin kompyuter o'qituvchi bo'la olmaydi, faqat unga qo'shimcha didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, kasb-hunar ta'limi tizimida maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalash uchun ma'lumotlar va bilimlar bazasini shakllantirish talab etiladi.

Ma'lumotlar va bilimlar bazasi tizimini yaratish va uni doimiy rivojlantirib borish, eng avvalo, ta'lim sifati darajasini oshirish bilan birga, dasturiy-metodik materiallarni o'zaro almashish, ta'lim tizimidagi sub'ektlarning kasbiy darajasini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim oluvchilarning ijodiy ishlarini faollashtirish, o'qitishni individuallashtirish, elektron ta'lim resurslaridan jamoa bo'lib foydalanish va mustaqil bilim olish imkoniyatlarini keskin oshiradi. Shuning uchun o'quvchilar uchun uslubiy ishlarni tashkil etish metodi asosan ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari va qonuniyatlariga asoslanib ishlab chiqilishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarning pedagogik fan sohasi va amaliyotiga joriy etilishi va rivojlanishi bevosita uning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish bilan bog'liq. Hozir "pedagogik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" va boshqa atamalar pedagogika amaliyotida yetarlicha dolzarb bo'lib kelmoqda. Bunday holatning sababi, birinchidan, pedagogik texnologiya nazariyasining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi; ikkinchidan, uni tashkil etuvchi asosiy tushunchalar mohiyati to'g'ri belgilanmaganligi; uchinchidan, turli ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishga yetarlicha tayyor emasliklari; to'rtinchidan, ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan o'z pedagogik mahoratlarini ko'tarish uchun rag'batlantirish va motivlarning rivojlanmaganligidadir. Jahon hamjamiyatining e'tirof etishicha, hozirgi kunda ta'lim tizimi ishlab chiqarishdan ancha orqada qolib ketmoqda va bitiruvchilarning ta'lim muassasasini tamomlaganlariga qadar ular olgan ayrim bilimlar eskirib qolmoqda. Shu bois ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich o'zgartirib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib, elektron interfaol va multimedia majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish hamda ulardan samarali foydalanish metodikalarini ta'minlash, shuningdek mustaqil bilim olishning yangi vositalarini ishlab chiqish va tarmoq texnologiyalari asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda [1,2].

Ta'lim texnologiyasi – bu o'qitishning to'la jarayonini yaratish, qo'llash, aniqlash va bilimlarni texnik va inson ashyolari hamda ular o'zining vazifasi ta'lim shaklini muqobillashtirish deb olgan o'zaro ta'sirni hisobga olgan bilimlarni o'zlashtirishning tizimli uslubidir. Ta'lim texnologiyasi pedagogik texnologiyaning qismi sifatida yangi ta'lim tizimi va ularning jarayonini boshqarish usullari, ishtirokchilarning faoliyatini loyihalash va amaliyotga joriy etish nazariyasi va metodologiyasini yaratishga qaratilgan. Ta'lim texnologiyasining bosh vazifasi–o'qitish va o'qish jarayonini muqobillashtirishdir. Bunday texnologiyalar qatoriga ko'pgina rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya pedagogik tizimlarini kiritish mumkin. Jumladan, muammoli o'qitish; kichik yoshdagi o'quvchilarni jadal rivojlantiruvchi o'qitish; o'qitish va o'quvchilarni o'quv faoliyati asosida aqliy rivojlantirish; axborot texnologiyalari va kompyuterli o'qitish tizimlari.

Ma'lumotlar va bilimlar bazasi muhitida sub'ektlarning asosiy vazifasi – axborot-metodik materiallar va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish hamda ta'lim muassasalarining kichik bazalarida joylashtirish va har qanday ta'lim sub'ektiga undan foydalanish imkoniyatlarini yaratishdir.

Olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ma'lumotlar va bilimlar bazasini yaratish va undan foydalanish bo'yicha vazifalari va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Zamonaviy ta'lim modelining asosi sifatida o'qitishning tarmoq texnologiyalarini joriy etish va ularni amaliy pedagogik faoliyatda sinovdan o'tkazish.

2. Individual o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda induvidni rivojlantirish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim olishni tashkillashtirish.

3. Turli darajadagi va yo'nalishdagi ta'lim muassasalari pedagoglarining hamkorlikdagi faoliyatini faollashtirish orqali o'qitishning zamonaviy kompyuter vositalarini ishlab chiqish:

a) elektron gipermurojaatli darsliklar va o'quv qo'llanmalar; sitalari;

4. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha shart-sharoitlarni yaratish, o'quv metodik materiallar va o'qitishning kompyuter vositalari bilan ta'minlash.

5. Axborot va tarmoq texnologiyalari bilan ishlovchi pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirish.

6. Ta'lim jarayoni sub'ektlarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qituvchi va o'quvchilarning ilmiy-amaliy anjumanlarini o'tkazish [4].

Yuqorida keltirilgan vazifalar mustaqil bilim olish uchun ma'lumotlar va bilimlar bazasini yaratishning dolzarbligini va undan sub'ektlarning foydalanish imkoniyatlarni belgilab beradi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida bunday tizimni yaratish tamoyillari va talablari muhim masalalardan biri bo'lib, ular kompleks yondoshuvni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, ma'lumotlar va bilimlar bazasini yaratish tamoyillari va talablari asosida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ma'lumotlar va bilimlar bazasini Respublikamizning kasb-hunar ta'limi muassasalari miqyosida yaratish kontsepsiyasini ishlab chiqish;

2. Respublika korporativ tarmog'ini yaratish va rivojlantirish hamda unga barcha kasb-hunar ta'limi muassasalarini ulash;

3. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari va rahbar xodimlarining ijodiy kuchini birlashtirish;

4. Tizimni yaratishda ishtirok etuvchilarning teng huquqligi quyidagilar orqali ta'minlanadi: a) integrallashgan ma'lumotlar va bilimlar bazasini tashkil etish va rivojlantirish; b) o'quv jarayonini ijodiy tashkil etishga yo'naltirilgan dasturiy va metodik ma'sulolarni jamoatchilik asosida ishlab chiqish, muhokama qilish hamda qo'llash; v) pedagogik faoliyatni tashkil etish muammolari bo'yicha turli darajadagi seminarlar tashkil etish; g) respublikamiz miqiyosida yagona ilmiy-metodik kengash tashkil etish va uning samarali ishlashini tahminlash; d) har qanday ta'lim muassasasining faoliyatiga doir qarorlar qabul qilish; s) ta'lim muassasasidagi ilmiy va pedagogik faoliyat haqida turli xil axborotlar olish imkonini tahminlash.

5. Tizimni rivojlantirish bo'yicha tashkil etilgan ishlar natijalarini ochiq va amaliy muhokama qilish [4].

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish va rivojlantirib borish natijasida ta'lim muassasalarining yagona ma'lumotlar va bilimlar bazasini yaratish hamda undan ta'lim samaradorligi oshirish yo'lida jamoa bo'lib foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy o'qitishdagidan farqli o'laroq ma'lumotlar va bilimlar bazasi tizimida o'quv jarayoni sub'ektlari orasidagi axborot almashinishining o'zaro aloqadorligi sharoitida muhim obyekt-interfaol o'qitish vositasi ham qatnashadi. Bu holda o'qituvchi, o'quvchi hamda o'qitish vositasi o'rtasida uch tomonlama faol axborot almashish jarayoni kuzatiladi. Bunda nafaqat o'qituvchi balki "savol beruvchi", "savollarga javob beruvchi", "tavsiya beruvchi" ta'lim vositasi ham faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, bunday vosita o'quvchi ishini to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, interfaol muloqot orqali qaytar aloqa o'rnatib, ish rejimlariga tegishli o'zgarishlar kiritish, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam berishi mumkin.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Abduraimov Sh. S. va boshqalar. "Kasb-hunar kollejlarda mutaxassislik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish". 1-tom. Toshkent.-2015-yil.
3. G'afforov F.H. Maxsus fanlar bo'yicha electron ta'lim resurslari bazasini yaratish va ulardan masofadan foydalanish metodikasi. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya aftoreferati. –Toshkent. – 2018. 65-98 b.